

**O'QITUVCHILAR KREATIV SALOHİYATINI AKMEOLOGIK YONDASHUV
ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL MODELİ**

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'qituvchilar kreativ salohiyatini akmeologik yondashuv asosida rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Unda kreativ salohiyat shaxsiy, kasbiy, intellektual va refleksiv komponentlar uyg'unligida shakllanuvchi murakkab pedagogik hodisa sifatida tahlil qilinadi. Akmeologik yondashuv o'qituvchining kasbiy yetuklikka erishishi, o'z-o'zini rivojlantirishi, innovatsion faoliyatga tayyorligi va ijodiy pedagogik yechimlar ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantiruvchi muhim ilmiy asos sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda o'qituvchilar kreativ salohiyatini rivojlantirishning konseptual modeli ishlab chiqilib, uning maqsadli, mazmuniy, texnologik, refleksiv-baholash va natijaviy bloklari tavsiflanadi. Shuningdek, maqolada modelni amaliyotga joriy etish shartlari, pedagogik mexanizmlari va kutiladigan natijalari ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: kreativ salohiyat, akmeologik yondashuv, kasbiy yetuklik, pedagogik ijodkorlik, refleksiya, innovatsion faoliyat, konseptual model.

**A CONCEPTUAL MODEL FOR DEVELOPING TEACHERS' CREATIVE
POTENTIAL BASED ON AN ACMEOLOGICAL APPROACH**

Abstract. This article covers the theoretical and methodological foundations of developing the creative potential of teachers based on an acmeological approach. It analyzes creative potential as a complex pedagogical phenomenon formed by the harmony of personal, professional, intellectual, and reflective components. The acmeological approach is interpreted as an essential scientific basis that promotes the teacher's professional maturity, self-development, readiness for innovative activities, and the ability to generate creative pedagogical solutions. In this study, a conceptual model for developing teachers' creative potential is developed, and its target, content, technological, reflective-evaluative, and result-oriented blocks are described. Furthermore, the article provides a scientific justification for the conditions, pedagogical mechanisms, and expected results of implementing this model in practice.

Keywords: creative potential, acmeological approach, professional maturity, pedagogical creativity, reflection, innovative activity, conceptual model.

**КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОГО ПОТЕНЦИАЛА
ПЕДАГОГОВ НА ОСНОВЕ АКМЕОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА**

Аннотация. В данной статье освещены теоретико-методологические основы развития творческого потенциала учителей на основе акмеологического подхода. В ней творческий потенциал анализируется как сложное педагогическое явление, формирующееся в единстве личностных, профессиональных, интеллектуальных и рефлексивных компонентов. Акмеологический подход интерпретируется как важная научная основа, способствующая достижению учителем профессиональной зрелости, саморазвитию, готовности к инновационной деятельности и развитию способностей к разработке творческих педагогических решений. В исследовании разработана концептуальная модель развития творческого потенциала учителей, описаны её целевой, содержательный, технологический, рефлексивно-оценочный и результативный блоки. Также в статье научно обоснованы условия, педагогические механизмы внедрения модели в практику и ожидаемые результаты.

Ключевые слова: творческий потенциал, акмеологический подход, профессиональная зрелость, педагогическое творчество, рефлексия, инновационная деятельность, концептуальная модель.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablar mazmunan o'zgarmoqda. Bugungi kunda pedagog faqat tayyor bilimlarni o'quvchiga yetkazuvchi mutaxassis emas, balki o'quvchining mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarda yechim topishi, ijodiy yondashuvi va ijtimoiy faolligini shakllantiruvchi yetakchi subyekt sifatida namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish bilan bir qatorda uning kreativ salohiyatini shakllantirish va takomillashtirish masalasi ham dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida maydonga chiqmoqda. Kreativ salohiyat o'qituvchining yangicha fikrlashi, pedagogik vaziyatga noodatiy yondasha olishi, ta'lim jarayonida innovatsion metod va texnologiyalardan samarali foydalanishi, o'quvchilarning qiziqishi, ehtiyoji va individual xususiyatlariga mos ijodiy ta'lim muhitini yaratish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Mazkur salohiyat tug'ma qobiliyat bilangina belgilanmaydi, balki kasbiy faoliyat jarayonida rivojlanadigan, maqsadli pedagogik ta'sir, o'z-o'zini tahlil qilish, tajriba almashish va metodik izlanishlar orqali shakllanadigan dinamik xususiyatdir.

O'qituvchilar kreativ salohiyatini rivojlantirishda akmeologik yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki akmeologiya insonning kasbiy va shaxsiy kamolot cho'qqisiga erishish qonuniyatlarini o'rganadi. Pedagogik faoliyatda akmeologik yondashuv o'qituvchining imkoniyatlarini anglash, ichki resurslarini safarbar etish, kasbiy mahoratini muntazam takomillashtirish, ijodiy faoliyatda yuqori natijalarga erishish jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etishga xizmat qiladi [1,34]. Bunday yondashuv o'qituvchi shaxsini tayyor metodik ko'rsatmalar ijrochisi sifatida emas, balki o'z kasbiy taraqqiyotini ongli ravishda boshqaruvchi, pedagogik yangiliklar yaratishga qodir ijodkor subyekt sifatida talqin etadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, ko'plab ta'lim muassasalarida o'qituvchilarning kreativ faoliyatga bo'lgan ehtiyoji ortib borayotgan bo'lsa-da, bu jarayonni tizimli boshqarish, pedagoglarning akmeologik o'sish bosqichlarini belgilash, kreativ salohiyatni rivojlantirish mezonlari va modelini ishlab chiqish yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Amaliyotda ayrim o'qituvchilar innovatsion metodlardan foydalanishga intilsa-da, ularning ijodiy faoliyati ko'pincha tasodifiy tajriba darajasida qolib ketadi. Demak, o'qituvchi kreativ salohiyatini rivojlantirish alohida tadbir yoki qisqa muddatli trening emas, balki aniq maqsad, mazmun, texnologiya, diagnostika va natija bilan bog'langan yaxlit akmeologik tizim sifatida tashkil etilishi lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Pedagog shaxsining kasbiy rivojlanishi, ijodiy faoliyati va akmeologik o'sishi masalalari ko'plab tadqiqotchilar tomonidan turli yo'nalishlarda o'rganilgan. Akmeologik yondashuvning nazariy asoslari B.G. Ananyev, A.A. Derkach, N.V. Kuzmina, A.A. Bodalev kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Ularning tadqiqotlarida kasbiy yetuklik insonning faqat bilim va ko'nikmalar yig'indisi emas, balki motivatsion, axloqiy, refleksiv, kommunikativ va ijodiy imkoniyatlar uyg'unligi sifatida izohlanadi [2, 48]. N.V. Kuzmina pedagogik faoliyat samaradorligini o'qituvchining kasbiy mahorati, kommunikativ qobiliyati, tashkiliy salohiyati va ijodiy pozitsiyasi bilan bog'laydi. Uning fikricha, o'qituvchining yuqori kasbiy natijaga erishishi shaxsiy sifatlar, kasbiy bilimlar va amaliy faoliyat tajribasining uzviy birligiga tayanadi [3, 76]. Bu qarash o'qituvchi kreativ salohiyatini rivojlantirishda akmeologik tamoyillarning muhimligini ko'rsatadi. Kreativlik muammosi psixologiya va pedagogikada J. Guilford, E. Torrance, M. Csikszentmihalyi, V.A. Kan-Kalik, V.I. Andreev, A.V. Xutorskoy kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. J. Guilford kreativlikni divergent tafakkur, ya'ni bir muammoga bir nechta yechim topish qobiliyati bilan bog'lagan [4, 112]. E. Torrance esa kreativlikni sezgirlik, muammolarni ko'ra bilish, g'oyalar ishlab chiqish, moslashuvchanlik va original fikrlash ko'rsatkichlari orqali baholashni taklif etgan [5,27]. Pedagogik nuqtayi nazardan esa kreativlik o'qituvchining o'quv-tarbiyaviy jarayonda yangilik yaratishi, standart vazifalarni nostandart yo'llar bilan hal qilishi va o'quvchilarni ijodiy fikrlashga yo'naltirishi bilan belgilanadi. O'zbek pedagogik adabiyotlarida ham o'qituvchining ijodiy faoliyati, innovatsion kompetentligi,

pedagogik mahorati va kasbiy rivojlanishi masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. N.A. Muslimov, M.H. Usmonboyeva, D.M. Sayfurov, A.B. To'rayev kabi tadqiqotchilar pedagog kadrlarni kasbiy rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion ta'lim texnologiyalari va o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmlarining o'rnini asoslab berganlar [6, 91]. Bu tadqiqotlarda o'qituvchining zamonaviy ta'limga moslashuvi, metodik yangilanishi va kasbiy faolligi muhim omil sifatida ko'riladi.

Biroq mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar kreativ salohiyatini aynan akmeologik yondashuv asosida rivojlantirishning yaxlit konseptual modeli yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ko'plab ishlarda kreativlik, innovatsion faoliyat yoki kasbiy kompetentlik alohida-alohida tahlil qilinadi. Akmeologik yondashuv esa mazkur jihatlarni yagona tizimga birlashtirish, o'qituvchining kasbiy "cho'qqi" sari harakatini bosqichma-bosqich tashkil etish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada nazariy tahlil, umumlashtirish, modellash, taqqoslash, tizimli yondashuv, pedagogik kuzatish natijalarini nazariy talqin qilish kabi metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini akmeologik, kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan va faoliyatga asoslangan yondashuvlar tashkil etdi.

Akmeologik yondashuv tadqiqotda o'qituvchining kasbiy yetuklikka erishish yo'li, uning shaxsiy-kasbiy imkoniyatlarini ochish, ichki motivatsiyasini kuchaytirish va ijodiy faoliyatini rivojlantirishni tushuntiruvchi asosiy metodologik mezon sifatida olindi. Kompetensiyaviy yondashuv esa kreativ salohiyatni aniq bilim, ko'nikma, malaka, qadriyat va faoliyat tajribasi bilan bog'liq holda o'rganish imkonini berdi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv o'qituvchining individual tajribasi, qiziqishi, kasbiy ehtiyoji, motivatsiyasi va ijodiy o'sish sur'atini hisobga olish zarurligini asoslaydi. Faoliyatga asoslangan yondashuv esa kreativ salohiyat faqat nazariy bilimlar orqali emas, balki real pedagogik faoliyat, muammoli vaziyatlar, loyihalar, dars tahlili, refleksiya va innovatsion tajriba jarayonida rivojlanishini ko'rsatadi.

Tadqiqotda "konseptual model" tushunchasi maqsad, tamoyil, mazmun, texnologiya, shart-sharoit, baholash mezonini va natijalarni o'zaro bog'lovchi nazariy-amaliy tizim sifatida talqin etildi. Model ishlab chiqishda quyidagi tamoyillarga tayanildi: tizimlilik, uzviylik, individuallashtirish, refleksivlik, ijodiy faollik, innovatsion ochiqlik, kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish va natijaviylik.

O'qituvchi kreativ salohiyati-bu pedagogning ta'lim-tarbiya jarayonida yangilik yaratish, mavjud tajribani qayta ishlash, muammoli vaziyatlarga mos original yechim topish, o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirish imkoniyatlarini ifodalovchi shaxsiy-kasbiy sifatlar majmuidir. Ushbu salohiyat faqat bitta qobiliyat bilan cheklanmaydi; u motivatsiya, tafakkur, kasbiy bilim, metodik mahorat, muloqot madaniyati, refleksiya va innovatsion faoliyat tajribasining uyg'unlashgan shaklidir.

Kreativ salohiyatning birinchi muhim komponenti-motivatsion-qadriyatli komponentdir. Bunda o'qituvchining yangilikka intilishi, kasbiy o'sishga ehtiyoji, ijodiy faoliyatga ijobiy munosabati, o'z kasbini qadrlashi va pedagogik mas'uliyati asosiy o'rin tutadi. Agar o'qituvchida ichki ehtiyoj va kasbiy motivatsiya yetarli bo'lmasa, eng samarali metodik tavsiyalar ham yuzaki bajarilishi mumkin. Shuning uchun akmeologik rivojlanish, avvalo, o'qituvchining "nima uchun rivojlanishim kerak?" degan savolga ichki javob topishidan boshlanadi.

Ikkinchi komponent-kognitiv komponentdir. Bu o'qituvchining pedagogika, psixologiya, metodika, fan yangiliklari, zamonaviy ta'lim texnologiyalari va kreativ fikrlash usullari haqidagi bilimlarini o'z ichiga oladi. Kreativlik bilimga qarshi qo'yilmaydi; aksincha, chuqur bilim ijodiy yechimlar uchun intellektual zamin yaratadi. Bilimsiz yangilik tasodifiylikka, nazariy asosga ega bo'lmagan tajriba esa barqaror natija bermaydigan faoliyatga aylanib qolishi mumkin.

Uchinchi komponent-faoliyatli-amaliy komponent. U o'qituvchining dars jarayonida metodlarni qo'llashi, interfaol topshiriqlar ishlab chiqishi, muammoli vaziyatlar yaratishi, o'quvchilarning ijodiy faolligini rag'batlantirishi, fanlararo bog'liqlikdan foydalanishi va raqamli resurslarni samarali tatbiq eta olishini anglatadi. Bu komponent kreativ salohiyatning amaliy ko'rinishini belgilaydi.

To'rtinchi component-kommunikativ komponent. Pedagogik kreativlik faqat individual fikrlash natijasi emas, balki o'quvchilar, hamkasblar, ota-onalar va ta'lim muassasasi jamoasi bilan samarali muloqot jarayonida ham namoyon bo'ladi. O'qituvchining savol berish madaniyati, ochiq muloqotga tayyorligi, o'quvchilarning g'oyalarini qadrlashi, fikrlar xilma-xilligini qo'llab-quvvatlashi kreativ ta'lim muhitini shakllantiradi.

Beshinchi component-refleksiv-baholovchi komponentdir. Bu o'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilishi, darsdagi muvaffaqiyat va kamchiliklarni aniqlashi, o'z ijodiy o'sish dinamikasini baholashi, xatolardan xulosa chiqarishi va keyingi faoliyatini takomillashtirish qobiliyatidir. Refleksiyasiz kreativlik barqaror kasbiy sifatga aylanmaydi, chunki o'qituvchi o'z tajribasining kuchli va zaif tomonlarini anglamas ekan, u ongli rivojlanish yo'liga o'ta olmaydi [7, 143].

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalarining nazariy tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar kreativ salohiyatini rivojlantirish samaradorligi bir nechta o'zaro bog'liq omillarga tayanadi. Birinchidan, ta'lim muassasasida ijodiy muhit mavjud bo'lishi lozim. O'qituvchi yangilik taklif qilganda qo'llab-quvvatlanmasa, uning kreativ tashabbusi sustlashadi. Ikkinchidan, metodik xizmat tizimi faqat hujjat yuritish yoki nazorat bilan cheklanmasdan, o'qituvchining ijodiy izlanishini rag'batlantirishi kerak. Uchinchidan, o'qituvchilarda refleksiv tahlil madaniyatini shakllantirish zarur. Chunki pedagogik tajriba faqat bajarilgan ishlar yig'indisi emas, balki anglangan, tahlil qilingan va takomillashtirilgan faoliyat natijasidir.

O'qituvchi kreativ salohiyatini akmeologik yondashuv asosida rivojlantirish jarayoni quyidagi asosiy bosqichlarda tashkil etilishi mumkin: diagnostik bosqich, motivatsion bosqich, mazmuniy-tayyorgarlik bosqichi, amaliy-ijodiy bosqich, refleksiv-baholash bosqichi va natijaviy bosqich. Ushbu bosqichlar bir-biridan ajralgan holda emas, balki uzviy va takrorlanuvchi rivojlanish sikli sifatida amal qiladi.

1-jadval. O'qituvchilar kreativ salohiyatini rivojlantirish bosqichlari

<i>Bosqichlar</i>	<i>Asosiy mazmuni</i>	<i>Amalga oshirish mexanizmlari</i>	<i>Kutiladigan natija</i>
<i>Diagnostik bosqich</i>	<i>O'qituvchining kreativ salohiyati, kasbiy ehtiyoji va rivojlanish darajasini aniqlash</i>	<i>So'rovnoma, suhbat, dars tahlili, o'z-o'zini baholash varaqalari</i>	<i>Boshlang'ich holat aniqlanadi</i>
<i>Motivatsion bosqich</i>	<i>Yangilikka ehtiyoj, kasbiy o'sish va ijodiy faoliyatga qiziqishni kuchaytirish</i>	<i>Motivatsion seminar, muvaffaqiyatli tajribalar tahlili, kasbiy maqsad qo'yish</i>	<i>Ichki motivatsiya kuchayadi</i>
<i>Mazmuniy-tayyorgarlik bosqichi</i>	<i>Kreativ pedagogika, akmeologiya va innovatsion metodlar bo'yicha bilimlarni boyitish</i>	<i>Trening, mahorat darsi, metodik seminar, mustaqil o'qish</i>	<i>Nazariy-metodik tayyorgarlik oshadi</i>
<i>Amaliy-ijodiy bosqich</i>	<i>Dars jarayonida kreativ metod va texnologiyalarni qo'llash</i>	<i>Loyiha metodi, muammoli ta'lim, STEAM, keys, ijodiy topshiriqlar</i>	<i>Pedagogik ijodkorlik amaliyotda namoyon bo'ladi</i>
<i>Refleksiv-baholash bosqichi</i>	<i>O'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish</i>	<i>Refleksiv kundalik, portfolioni tahlil qilish, hamkasblar fikri</i>	<i>O'z-o'zini baholash va rivojlantirish kuchayadi</i>
<i>Natijaviy bosqich</i>	<i>Kreativ salohiyat rivojlanganlik darajasini aniqlash</i>	<i>Mezonga asoslangan baholash, monitoring, dars natijalari tahlili</i>	<i>Barqaror kreativ kompetentlik shakllanadi</i>

Jadvaldan ko‘rinadiki, kreativ salohiyatni rivojlantirish bir martalik metodik tadbir emas, balki bosqichma-bosqich tashkil etiladigan pedagogik jarayondir. Ayniqsa, diagnostika va refleksiya bosqichlari modelning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki o‘qituvchi o‘zining mavjud imkoniyatlarini anglamasa, keyingi rivojlanish yo‘nalishini ham aniq belgilay olmaydi.

Tahlillar asosida o‘qituvchilar kreativ salohiyatini rivojlantirishning quyidagi konseptual modeli ishlab chiqildi.

1-sxema. O‘qituvchilar kreativ salohiyatini akmeologik yondashuv asosida rivojlantirish modeli

Model bloklari	Mazmuni	Asosiy vazifasi
Maqsadli blok	<i>O‘qituvchining kreativ salohiyatini kasbiy yetuklikka yo‘naltirilgan holda rivojlantirish</i>	Rivojlanish maqsadi va strategiyasini belgilash
Nazariy-metodologik blok	<i>Akmeologik, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va faoliyatli yondashuvlar</i>	Ilmiy asos va tamoyillarni aniqlash
Mazmuniy blok	<i>Kreativ tafakkur, pedagogik ijodkorlik, innovatsion metodlar, refleksiya, kommunikativ madaniyat</i>	Rivojlantiriladigan bilim, ko‘nikma va sifatlarni belgilash
Texnologik blok	<i>Trening, mahorat darsi, loyiha, keys, muammoli ta’lim, mentorlik, portfolio</i>	Amaliy rivojlantirish vositalarini tanlash
Refleksiv-baholash bloki	<i>Diagnostika, monitoring, o‘z-o‘zini baholash, ekspert tahlili</i>	Rivojlanish dinamikasini aniqlash
Natijaviy blok	<i>Kreativ kompetent, innovatsion fikrlovchi, refleksiv va kasbiy yetuk o‘qituvchi</i>	Yakuniy pedagogik natijani belgilash

Mazkur modelning markazida o‘qituvchi shaxsi turadi. Chunki kreativ salohiyat tashqi topshiriq natijasi emas, balki o‘qituvchining ichki ehtiyoji, kasbiy pozitsiyasi va ijodiy faoliyati bilan bog‘liq jarayondir. Modelning maqsadli bloki rivojlanishning umumiy yo‘nalishini belgilaydi. Nazariy-metodologik blok esa bu jarayon qanday ilmiy yondashuvlarga tayanishini ko‘rsatadi. Mazmuniy blokda o‘qituvchida shakllantirilishi zarur bo‘lgan sifatlarni aniqlanadi. Texnologik blok mazkur sifatlarni rivojlantirish usul va vositalarini o‘z ichiga oladi. Refleksiv-baholash bloki esa jarayonni muntazam nazorat qilish, tahlil qilish va takomillashtirish imkonini beradi.

Modelning samarali ishlashi uchun bir qator pedagogik shart-sharoitlar zarur. Birinchidan, ta’lim muassasasida ijodiy va psixologik jihatdan xavfsiz muhit yaratilishi kerak. O‘qituvchi yangi g‘oya bildirganda tanqidiy bosimdan cho‘chimasligi, aksincha, metodik qo‘llab-quvvatlashni his qilishi lozim. Ikkinchidan, rahbar va metodistlar o‘qituvchining faqat hujjatlarini emas, balki uning ijodiy izlanishlarini ham baholashi zarur. Uchinchidan, o‘qituvchilar o‘rtasida tajriba almashish, ochiq darslarni tahlil qilish, mentorlik, kasbiy hamkorlik va metodik laboratoriyalar faoliyati yo‘lga qo‘yilishi kerak. To‘rtinchidan, o‘qituvchining individual rivojlanish xaritasi ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

Tahlil davomida kreativ salohiyatni rivojlantirishga ijobiy ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida quyidagilar ajratildi: ichki kasbiy motivatsiya; yangilikka ochiqlik; metodik erkinlik; refleksiv fikrlash; pedagogik tajribani tahlil qilish; raqamli va innovatsion texnologiyalardan foydalanish; hamkorlikka asoslangan muhit; rahbariyat tomonidan rag‘batlantirish; o‘quvchilarning ijodiy faolligini qo‘llab-quvvatlash. Shu bilan birga, mazkur jarayonga to‘sqinlik qiluvchi ayrim omillar ham mavjud. Ular orasida ortiqcha byurokratik yuklama, o‘qituvchining yangilikka nisbatan ishonchsizligi, metodik yordamning yetarli emasligi, kasbiy charchash, baholash tizimining ijodiy faoliyatni yetarli darajada rag‘batlantirmasligi, tajriba almashish muhitining sustligi kabi holatlar alohida ajralib turadi.

2-jadval. Kreativ salohiyatni rivojlantiruvchi va cheklovchi omillar

Rivojlantiruvchi omillar	Cheklovchi omillar	Akmeologik yechim
Ichki motivatsiya va kasbiy qiziqish	Kasbiy loqaydlik va charchash	Shaxsiy rivojlanish maqsadlarini belgilash
Metodik erkinlik	Haddan tashqari qoliplashgan talablar	Ijodiy dars loyihalarini qo'llab-quvvatlash
Innovatsion muhit	Yangilikka nisbatan qo'rquv	Trening va mentorlik tizimini yo'lga qo'yish
Refleksiv tahlil	O'z faoliyatini baholamaslik	Refleksiv kundalik va portfolio yuritish
Hamkorlik va tajriba almashish	Individual yopiqlik	Metodik guruh va kasbiy jamoalar tashkil etish
Rahbariyat rag'batlari	Faqat formal nazoratga asoslanish	Ijodiy natijalarni e'tirof etish va baholash

Ushbu jadvaldan ko'rinadiki, kreativ salohiyatni rivojlantirish nafaqat o'qituvchining shaxsiy xohishiga, balki ta'lim muassasasidagi boshqaruv madaniyati, metodik xizmat sifati va kasbiy hamkorlik darajasiga ham bog'liq. Shuning uchun konseptual model individual, jamoaviy va institutsional darajadagi chora-tadbirlarni birlashtirishi zarur.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, akmeologik yondashuv asosida tashkil etilgan rivojlantirish jarayoni quyidagi natijalarga olib kelishi mumkin: o'qituvchining kasbiy o'zini anglashi kuchayadi; pedagogik vaziyatlarni ijodiy hal qilish qobiliyati rivojlanadi; o'qituvchi darsni faqat reja asosida o'tuvchi ijrochi emas, balki ta'lim jarayonini loyihalashtiruvchi ijodkor subyektga aylanadi; o'quvchilarning faolligi, mustaqil fikrlashi va ijodiy topshiriqlarga qiziqishi ortadi; metodik birlashmalarda tajriba almashish sifati yaxshilanadi; o'qituvchining kasbiy charchash xavfi kamayadi, chunki ijodiy faoliyat pedagogga yangilanish va o'z mehnatidan qoniqish hissini beradi.

O'qituvchilar kreativ salohiyatini rivojlantirish konseptual modelini amaliyotga joriy etishda, avvalo, ta'lim muassasasi darajasida akmeologik rivojlanish muhiti yaratilishi lozim. Bunday muhit o'qituvchilarning tajriba almashishi, ijodiy tashabbus ko'rsatishi, yangi metodlarni sinab ko'rishi va o'z faoliyatini tahlil qilishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Birinchi mexanizm-individual rivojlanish xaritasini ishlab chiqishdir. Har bir o'qituvchi o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, ma'lum muddat uchun kasbiy rivojlanish maqsadlarini belgilaydi. Masalan, bir o'qituvchi interfaol metodlarni chuqur o'rganishni, boshqasi raqamli ta'lim resurslari yaratishni, yana biri o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasini o'zlashtirishni maqsad qilishi mumkin.

Ikkinchi mexanizm-akmeologik treninglar tashkil etishdir. Bunday treninglar oddiy ma'ruza shaklida emas, balki muammoli vaziyatlar, keyslar, guruhli topshiriqlar, ijodiy mashqlar, dars loyihalash va refleksiv tahlil asosida o'tkazilishi kerak. Trening jarayonida o'qituvchi tayyor bilim oluvchi emas, balki faol ishtirokchi va ijodiy muallif sifatida qatnashadi.

Uchinchi mexanizm-mentorlik va kasbiy hamkorlik tizimidir. Tajribali va kreativ o'qituvchilar yosh pedagoglarga metodik yordam ko'rsatishi, darslarni birgalikda rejalashtirishi, tahlil qilishi va ijodiy yechimlar ishlab chiqishi mumkin. Bunday hamkorlikda mentor nazoratchi emas, balki yo'naltiruvchi va hamkor sifatida ishtirok etadi.

To'rtinchi mexanizm-pedagogik portfolio yuritishdir. Portfolio o'qituvchining ijodiy ishlari, dars ishlanmalari, metodik topilmalari, o'quvchilar ishlari, refleksiv yozuvlari va kasbiy yutuqlarini jamlaydi. Portfolio orqali o'qituvchi o'z rivojlanish dinamikasini ko'ra oladi va keyingi maqsadlarini aniqlaydi.

Beshinchi mexanizm-kreativ dars laboratoriyalarini tashkil etishdir. Bunda o'qituvchilar yangi dars modellarini ishlab chiqadi, sinovdan o'tkazadi, natijalarni tahlil qiladi va

takomillashtiradi. Laboratoriya shaklidagi ishlar o'qituvchini ijodiy izlanishga undaydi, metodik yangiliklarni tajriba asosida baholash imkonini beradi.

Oltinchi mexanizm-refleksiv seminarlar o'tkazishdir. Refleksiv seminarlarda o'qituvchilar o'z darslaridagi muvaffaqiyat va qiyinchiliklarni ochiq muhokama qiladi, hamkasblaridan fikr oladi, muammolarga birgalikda yechim topadi. Bu jarayon o'qituvchining kasbiy yopiqqligini kamaytiradi va ijodiy hamkorlik madaniyatini kuchaytiradi.

Muhokama. O'qituvchi kreativ salohiyatini rivojlantirishda akmeologik yondashuvning ustunligi shundaki, u pedagogni faqat tashqi talablarni bajaruvchi mutaxassis sifatida emas, balki o'z kasbiy o'sishini ongli boshqaruvchi shaxs sifatida ko'radi. An'anaviy metodik yondashuvda ko'pincha o'qituvchiga nima qilish kerakligi ko'rsatiladi; akmeologik yondashuvda esa o'qituvchi nima uchun, qanday va qaysi maqsad sari rivojlanishi kerakligini anglaydi. Mazkur yondashuv kreativlikni tasodifiy ilhom mahsuli emas, balki maqsadli rivojlantiriladigan kasbiy sifat sifatida tushuntiradi. Bu juda muhim, chunki ta'lim amaliyotida ba'zan kreativlik faqat tug'ma iste'dod bilan bog'lanadi. Aslida esa o'qituvchining kreativ salohiyati muntazam izlanish, bilimlarni yangilash, tajribani tahlil qilish va o'quvchi shaxsiga hurmat bilan yondashish jarayonida shakllanadi.

Akmeologik model o'qituvchi faoliyatida uchta asosiy o'zgarishni yuzaga keltiradi. Birinchisi-motivatsion o'zgarish. O'qituvchi o'z rivojlanishini majburiyat sifatida emas, balki kasbiy ehtiyoj sifatida qabul qila boshlaydi. Ikkinchisi-metodik o'zgarish. O'qituvchi tayyor qoliplardan ijodiy foydalanadi, ularni sharoitga moslashtiradi va o'quvchilarning individual xususiyatlariga qarab darsni loyihalashtiradi. Uchinchisi-refleksiv o'zgarish. O'qituvchi o'z faoliyatiga tashqaridan nazar tashlaydi, natijalarni tahlil qiladi va o'z pedagogik uslubini takomillashtirib boradi. Shuningdek, model o'qituvchi va o'quvchi munosabatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kreativ salohiyati rivojlangan o'qituvchi o'quvchini faqat bilim oluvchi sifatida emas, balki fikrlovchi, izlanish olib boruvchi, savol beruvchi va mustaqil yechim topuvchi shaxs sifatida qabul qiladi. Natijada dars jarayonida hamkorlik, muloqot, izlanish va ijodiy muhit kuchayadi.

Xulosa. O'qituvchilar kreativ salohiyatini akmeologik yondashuv asosida rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim ilmiy-amaliy vazifalaridan biridir. Chunki bugungi ta'lim jarayoni o'qituvchidan nafaqat bilim va metodik mahorat, balki yangicha fikrlash, pedagogik vaziyatlarga moslashuvchan yondashish, o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini ochish va o'z kasbiy rivojlanishini ongli boshqarishni talab etadi.

Tadqiqotda ishlab chiqilgan konseptual model maqsadli, nazariy-metodologik, mazmuniy, texnologik, refleksiv-baholash va natijaviy bloklardan iborat bo'lib, u o'qituvchilar kreativ salohiyatini tizimli rivojlantirishga xizmat qiladi. Modelning samaradorligi ta'lim muassasasida ijodiy muhit yaratish, metodik qo'llab-quvvatlash, individual rivojlanish xaritalarini ishlab chiqish, mentorlik, kreativ dars laboratoriyalari, refleksiv seminarlar va pedagogik portfolio yuritish orqali ta'minlanadi. Umuman olganda, o'qituvchining kreativ salohiyatini rivojlantirish faqat pedagogning shaxsiy yutug'i emas, balki ta'lim sifati, o'quvchi faolligi, innovatsion muhit va jamiyatning intellektual taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq jarayondir. Shu sababli akmeologik yondashuv asosida tashkil etilgan rivojlantirish tizimi pedagogik ta'lim va malaka oshirish amaliyotida keng qo'llanishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. — Санкт-Петербург: Питер, 2001. — 288 с.
2. Деркач А.А. Акмеология: личностное и профессиональное развитие человека. — Москва: РАГС, 2000. — 536 с.
3. Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. — Москва: Высшая школа, 1990. — 119 с.
4. Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. — New York: McGraw-Hill, 1967. — 538 p.

5. Torrance E.P. The Torrance Tests of Creative Thinking: Norms-Technical Manual. — Bensenville: Scholastic Testing Service, 1974. — 95 p.
6. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. — Тошкент: Sano-standart, 2015. — 120 б.
7. Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития. — Казань: Издательство Казанского университета, 1996. — 568 с.
8. Бодалев А.А. Вершина в развитии взрослого человека: характеристики и условия достижения. — Москва: Флинта, 1998. — 168 с.
9. Кан-Калик В.А., Никандров Н.Д. Педагогическое творчество. — Москва: Педагогика, 1990. — 144 с.
10. Хуторской А.В. Педагогическая инноватика. — Москва: Академия, 2008. — 256 с.
11. Csikszentmihalyi M. Creativity: Flow and the Psychology of Discovery and Invention. — New York: HarperCollins, 1996. — 456 p.
12. Sternberg R.J., Lubart T.I. Defying the Crowd: Cultivating Creativity in a Culture of Conformity. — New York: Free Press, 1995. — 326 p.
13. Зимняя И.А. Педагогическая психология. — Москва: Логос, 2004. — 384 с.
14. Слостенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика. — Москва: Академия, 2013. — 576 с.
15. Митина Л.М. Психология профессионального развития учителя. — Москва: Флинта, 1998. — 200 с.